

O'ZBEKISTON QISHLOQ HUDUDLARIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH UCHUN MOLIVAVIY VA TA'LIMIY QO'LLAB-QUVVATLASH

Nazarova Fotima Hakimovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Mehnat iqtisodiyoti kafedrası professor, iqtisodiyot fanlari doktori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18708151>

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston qishloq hududlarida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun mavjud moliyaviy va ta'limiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini tahlil qiladi. Qishloq ayollarining mehnat bozoridagi moliyaviy resurslarga cheklangan kirish, oilaviy yuklamalar, infratuzilma muammolarini bartaraf etishga qaratilgan. Ayollar tadbirkorlik markazlari orqali biznes savodxonligi, marketing va raqamli ko'nikmalar treninglari, qishloq hududlarida onlayn ta'limni kengaytirish va infratuzilmani yaxshilash orqali samaradorlikni oshirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: ayollar tadbirkorligi, iqtisodiy mexanizm, infratuzilma, samaradorlik, mehnat bozori, moliyaviy savodxonlik, marketing asoslari.

Аннотация: В данной статье анализируются существующие механизмы финансовой и образовательной поддержки для развития женского предпринимательства в сельских регионах Узбекистана. Она направлена на преодоление ограниченного доступа сельских женщин к финансовым ресурсам на рынке труда, семейных обязанностей и инфраструктурных проблем. Повышение эффективности планируется достичь путем обучения деловой грамотности, маркетингу и цифровым навыкам через центры женского предпринимательства, расширения онлайн-образования и улучшения инфраструктуры в сельской местности.

Ключевые слова: женское предпринимательство, экономический механизм, инфраструктура, эффективность, рынок труда, финансовая грамотность, основы маркетинга.

Abstract: This article analyzes existing financial and educational support mechanisms for women's entrepreneurship development in rural areas of Uzbekistan. It aims to overcome the limited access of rural women to financial resources in the labor market, family responsibilities, and infrastructure problems. Efficiency improvement is planned to be achieved through business literacy, marketing, and digital skills training through women's entrepreneurship centers, expanding online education, and improving rural infrastructure.

Keywords: women's entrepreneurship, economic mechanism, infrastructure, efficiency, labor market, financial literacy, marketing basics.

Kirish

O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishida ayollar tadbirkorlik faoliyati bilan bandligi qishloq hududlarida muhim rol o'ynaydi. Mamlakatda ayollar tadbirkorligi so'nggi yillarda sezilarli darajada o'sib bortgani kuzatilmoqda. 2024-yilda 2,1 million ayol tadbirkor faoliyat yuritmoqda, bu 2020-yilga nisbatan yetti baravar ko'pdir. Bugungi kunda gender tengligi siyosati doirasida ayollar tadbirkorligining iqtisodiy o'sishga, qashshoqlikni kamaytirishga va bandlikni oshirishga qo'shgan hissasini ortmoqda. Demak, bugungi kunda moliyaviy va ta'limiy mexanizmlarni takomillashtirish orqali qishloq ayollarining tadbirkorlik faolligini 40% ga oshdi.

Asosiy qism

Moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari O'zbekistonda ayollar tadbirkorligini moliyalashtirish uchun bir qator dasturlarni joriy etgan. 2025-yilda xotin-qizlar loyihalarini qo'llab-quvvatlash uchun qo'shimcha 200 mln AQSh dollari ajratilgan, shundan 100 mln dollari Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasidan tijorat banklariga berilgan. Qishloq hududlarida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi doirasida 5,7 trillion so'm mablag' ajratilgan bo'lib, uning 55% loyihalar qishloq xo'jaligida bajarildi, bu ayollar rahbarligida amalga oshiriladigan loyihalar ulushi hisoblanadi. Dasturga ko'ra, 2025-yilda 250 ming ayol kasbiy va tadbirkorlik ta'limidan o'tkazilishi rejalashtirilib amalga oshirildi. "Ayollar tadbirkorlik markazlari" qishloq tumanlarda tashkil etilgan, ular biznes rejalashtirish, IT va huquqiy masalalarni o'z ichiga olgan trening kurslarida moliyaviy savodxonlik darslari 40 soat, marketing asoslari dars mashg'ulotlari 40 soat, raqamli ko'nikmalar hosil qilishga qaratilgan dars mashg'ulotlari 25 soat soat hajmida o'quvlarda ishtirok etishdi. Bundan tashqari mamlakatimizda "Hamkor tadbirkor" dasturi kooperativ faoliyat va mahsulot sotishda qishloq hududlarida asosan, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarida hunarmandchilik markazlari ochildi, ularning 70% xarajatlar Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tomonidan qoplandi.

1-jadval¹.

Moliyaviy mexanizmlar	Bajarilgan ish hajmi
Ayollar tadbirkorlar soni (qishloq)	1 mln
Qishloq xo'jaligi loyihalari ulushi	55%
Kredit olishdagi ayollar ulushi	45%
Ta'limdan o'tgan ayollar	250

Loyihaning ayollarning tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash amaliyotiga qaratilgan bo'lib, moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish va gender-sezuvchan tadbirkorlik ekotizimini yaratish orqali ayollar boshchiligidagi korxonalarining imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Bunga ko'ra, gender tengligini hisobga oladigan, salohiyatni oshirish bo'yicha o'quv dasturi va tuzilgan murabbiylik tizimi tadbirkor ayollar duch keladigan noyob muammolarni hal qiladi, ularga barqarorlikni oshirishga va bozorlarga kirish imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Hamkorlik va qo'llab-quvvatlovchi munosabatlarni rivojlantirish orqali dastur xotin-qizlarning o'ziga bo'lgan ishonchini va biznesda yetakchilik qilish qobiliyatini mustahkamlaydi, bu esa o'z korxonalarini muvaffaqiyatli kengaytirib, O'zbekiston iqtisodiyotida rahbarlik lavozimlarini egallab turgan ayollar sonining ko'payishiga olib keladi.

2- jadval

O'zbekiston qishloq hududlarida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning moliyaviy mexanizmlari²

Mexanizm nomi	Turi	Tavsif
2025- yil qabul qilingan PQ-103 farmoni	Aralash	200 mln \$ ajratish imtiyozli kreditlar (14% foiz), grantlar 50 mln so'mgacha, biznes treninglari.

¹ Ўзбекистон статистика қўмитасининг маълумотлари асосида тайёрланди.

² Ўзбекистон статистика қўмитасининг маълумотлари асосида тайёрланди.

"Hamroh" dasturi	Moliyaviy	Garovsiz 100 mln so'm kreditlar, subsidiyalar; "yashil" loyihalar uchun grantlar.
Oilaviy tadbirkorlik dasturi	Moliyaviy	5,7 trillion so'm (445 mln \$), imtiyozli kreditlar; 55% qishloq xo'jaligi loyihalari.
UNDP WESP dasturi	Ta'limiy	Treninglar natijasi moliyaviy savod (40 soat), marketing (40 soat), raqamli ko'nikmalar; mentorlik.
Ayollar tadbirkorlik markazlari (2019)	Ta'limiy	Treninglarda qatnashish biznes reja, IT, huquq; hunarmandchilik markazlari tomonidan 70% xarajat qoplash.
We-Finance Code	Moliyaviy	Ayollar korxonalariga moliyalashtirish; imtiyozli mahsulotlar, gender ma'lumotlari.

Takliflar

Tadbirkor ayollarni qo'llab quvvatlashga qaratilgan loyihalarning amalga oshirish natijasida infratuzilma muammolarni o'rganish natijasida qishloq hududlarida 250 ming ayollar uchun bepul ta'lim olish yo'lga qo'yilib, NEET doirasida ayollar uchun 188 ming ta loyihalar amalga oshirildi va moliyaviy savodxonlikning o'sishiga olib keldi. Ayollar tadbirkorliginin qo'llab quvvatlashga qaratilgan loyihalarning tahlili asosida quyidagilarni taklif etamiz.

Qishloq hududlari uchun moliyaviy stavkalarni pasaytirish;

Moliyaviy savodxonlik oshirish uchun olib boriladigan ta'limni onlayn formatga o'tkazish; qishloq hududlarida ayollarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish.

Xulosa

O'zbekiston qishloq hududlarida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun moliyaviy va ta'limiy mexanizmlar samarali, ammo takomillashtirish talab etiladi. Natijada, maqsadli dasturlar orqali gender tengligi va iqtisodiy o'sishga erishiladi.

References:

1. UNDP. (2025). O'zbekistonda ayollar tadbirkorligi: Tahlil va tavsiyalar.
2. Women's entrepreneurship in uzbekistan: Assessment and recommendations - United Nations Development Programme.
https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2025-04/report_women_entrepreneurship_in_uzbekistan_eng_uz.pdf
3. Uzbekistan - Enhancing Economic Opportunities For Rural Women Project : Grant : O'zbekiston - Qishloq Ayollari Uchun Iqtisodiy Imkoniyatlarni Oshirish Loyihasi : Grantlar.
<https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/099555010262233214>
4. <https://stat.uz/uz/>.
5. World Bank: Uzbekistan Must Tackle Gender Inequality. <https://timesca.com/world-bank-uzbekistan-must-tackle-gender-inequality>.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 14 martdagi "Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-103 son Qarori.